



AHOLI VA HUDUDLARNI GIDROMETEOROGIK XUSUSIYATLARI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZASI QILISHNI TASHKIL ETISH

Eshmatov Rustam Murodovich

Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi uslubchi- o'qituvchisi

Telefon raqami: 99899-881-42-70

Annotatsiya: Mamlakatimiz geografik jihatdan shunday bir mintaqada joylashganki, tabiatninng biror bir turdag'i injqliklari bu o'lkani chetlab o'tmagan. Jumladan, tabiiy xodisalardan - yer qimirlashlari, siljishlari, o'pirilishlar, qor ko'chishlar, kuchli yog'ingarchiliklar, dovullar va boshqa fojiali oqibatga olib kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar mintaqamizda bo'lib turadi. Shuning uchun ham Respublikamiz hududida favqulodda vaziyatlar yuzaga keltiradigan havfyo 'q emas deb aytolmaymiz, ular haqida aholiga to'la ma'lumot berish, ular yuz berishini oldini olish mumkinligi, sodir bo'lganda qilinishi zarur bo'lgan tadbirlar haqida yo'l-yo'riq berish, ularga o'rgatish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Sel, Turbulent, Toshqin, dengizlar, daryolar, soyalar, muzliklar, qor, jala, Strukturali sellar, geomorfologik, gidrometeorologik

Tabiiy ofatlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar soluvchi, ekologik muhitga, halq xo'jaligiga beqiyos zarar yetkazuvchi hodisalar bo'lib, ular har yili mamlakatimizning turli hududlarida sodir bo'lib turadi, har yili turli-tuman tabiiy xodisalar mamlakatimizning u yoki bu hududlarida sodir bo'lib turishi uzoq yillik kuzatishlardan ma'lum. Masalan; Farg'on'a vodiysi viloyatlarida sel kelishi, Xorazm va Toshkent viloyatlari hududlarida suv toshqini, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa chang-to'zonli shamollar, «Afg'on» shamollari sodir bo'lib turadi.

Sel - suvning mexanik faoliyatidan yuzaga keladigan murakkab jarayon bo'lib, turli omillarning (iqlim, hidrologik, geomorfologik, geologik va boshqalar.) o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Uning tarqalishida mahalliy sharoit alohida o'rinn egallaydi. Sel vujudga keladigan yoki sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan joylarni sel o'chog'i deb yuritiladi. Sel o'chog'i paydo bo'lishining asosiy ko'rsatgichi gidrometeorologik sharoit hisoblanadi. Uzoq muddatli jala yog'ishi va muzliklarning qisqa muddatda kuchli erishi oqibatida daryo o'zanlaridagi suv miqdori keskin ko'payib ketadi. Natijada suv bilan aralashgan (qum, shag'al, dagal bo'lakli jinslar) oqim paydo bo'lishi natijasida maydonning quyi qismlarida katta kuchga ega bo'lib ko'pgina qo'poruvchilik ishlarini amalga oshiradi. Shu sababga ko'ra sellar ikki guruhga bo'linadi: glyatsial - muzlik va qorlarning tez erishi va jalali - ko'p miqdorda yomg'ir yog'ishi natijasida paydo



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo‘ladi. Ularni paydo bo‘lishida joyning geomorfologik tuzilishi va chiqindi jinslar miqdori ham alohida o‘rin egallaydi.

Respublikamizning tog‘ oldi hududlari va unga tutash tekisliklarida ko‘p yomg‘ir yog‘ishi natijasida paydo bo‘ladigan sellar keng tarqalgan. Yirik qor va muzlik qatlamlari tarqalgan tog‘li zonada esa glyatsial turi ko‘proq uchraydi. Sellarning jalali turi aholi va hududlarga katta havf solib ko‘p miqdorda iqtisodiy zarar yetkazadi.

Sel oqimlari harakat hususiyati bo‘yicha turbulent va strukturali turlariga bo‘linadi.

Turbulent sellar o‘zan bo‘ylab, daryo va soylardagi suv miqdori ortib ketishi natijasida oqim harakati qonuniga muvofiq vodiy yo‘nalishi bo‘yicha bo‘ladi.

Strukturali sellar maydon bo‘ylab, turli tosh bo‘laklarining butun yonbag‘ir bo‘yicha yoppasiga bostirib kelishi natijasida bo‘ladi.

Respublikamizning sel havfi bor joylaridagi aholini havfsiz joylarga o‘tkazish bo‘yicha favqulodda vaziyatlar vazirligi, Boshgidromet xizmati hamda Suv va Qishloq xo‘jaligi vazirligi xodimlari joylardagi mahalliy hukumat organlari rahbarlari bilan maxsus dasturlar asosida harakat qilmoqdalar.

Havfli joylarda joylashgan aholining to‘g‘ri harakat qilishida, ayniqla ko‘chki va sel oqimlari bo‘ladigan hududlarda, havf yuzaga keladigan omillarni o‘z vaqtida aniqlash, qayd etish va bundan aholini habardor qilish tadbirlari muhim o‘rinni egallaydi.

Sel havfi bor joylardagi aholi o‘n daqiqa mobaynida, ko‘pi bilan 1-2 soat ichida ogohlantirilishi kerak.

Hususan, sel havfi bo‘lishiga me’yordan ortiq jala quyishi yoki mavsumga hos bo‘lman haroratning birdan ko‘tarilishi sababchi bo‘ladi. Sodir bo‘lgan sel to‘g‘risida, aholi yashash joylariga yaqinlashishidan quyidagi ko‘rsatkichlar dalolat beradi. Daryo va soy suvlarining oshib ketishi, ularning yuqori qismida barcha shovqinlarni qamrab oluvchi kuchli gumburlash, oqimdagи yirik toshlarni bir-biriga urilishi natijasida vahimali larza paydo bo‘ladi.

Eng muhimi qadimiy an’analarga rioya qilgan holda barcha tarbiyaviy va amaliy ishlarni rejashtirish lozim. Shundagina sodir bo‘lishi lozim bo‘lgan havf mumkin qadar oldi olinadi yoki undan keladigan iqtisodiy talafot kamroq bo‘ladi.

Masalan, millatimizga hos bo‘lgan hikmatlardan «Serdaraxt qishloqni sel olmas» degan dono fikrga amal qilinsa, qar qanday yog‘ingarchilik bo‘lsada, sel oqimi tarkibidagi cho‘kindi jinslari mutlaqo bo‘lmasligiga olib keladi.

Bundan tashqari qurilish inshootlarini rejashtirishda sel havfi bor joylardan uzoqroqda bo‘lishiga qat‘iyan rioya qilinishi kerak. Yana bir muammo to‘g‘risida, ya’ni hozirgi vaqtida qir-adirlarni o‘zlashtirib sug‘orma yerlarga aylantirish hollarini ko‘p uchratayapmiz. Asosiy e’tibor shu yerlardagi agrotexnik ishlov berishga, ya’ni adirlarni ko‘ndalangiga haydash yoki sug‘orish inshootlarini shu yo‘nalishda bo‘lishiga chek qo‘yish kerak.

Buning uchun nimalarga e’tibor berish lozim?



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Yukorida qayd qilinganidek, sellar mavsumiy vaqlarda sodir bo‘ladigan jarayonlardan hisoblanadi, shu vaqlarda sel havfi yuqori bo‘lgan hududlarda faoliyat ko‘rsatishning ayrim talablariga rioya qilish zarur. Ya’ni, ko‘p holatlarda aholining ma’lum qismi dam olish vaqtlarini tog‘li o‘lkalarda, daryo bo‘ylarida o‘tkazishga harakat qilishadi. Bu bejiz emas, albatta. Lekin daryo bo‘ylarida vaqtinchalik chodir qurishdan oldin joyning tabiiy sharoiti, relefi, atrof muhitning tuzilishi to‘g‘risida fikr yuritilib, so‘ng to‘xtash joyini belgilash kerak. Yog‘ingarchilik miqdori asta-sekin ortib borishi bu turgan joyni zudlik bilan o‘zgartirish lozimligiga bildirilgan birinchi ishoradir.

Chunki suv miqdorining daryo va soylarda ortib ketishi dam oluvchilarga ortiqcha tashvish tug‘diradi. Mobodo shunday vaziyatda sel oqimlari belgisi sezilgudek bilinsa tezlik bilan daryo uzanidan iloji boricha uzoqroq, balandroq yonbag‘irga chiqib ketish zarur.

Yog‘ingarchilik o‘tib ketgandan so‘ng vodiya tushishga hech vaqt shoshilish kerak emas, chunki birinchi sel oqimidani so‘ng keyingilari takrorlanishi mumkin.

Tabiiy ofatlar ichida katta talofatlar keltiradigan, aholini og‘ir tahlikaga soladigan va qisqa vaqt ichida shiddatli bo‘ladigani suv toshqinlaridir.

Toshqin-daryolar, soylar, dengizlar, ko‘llarda suv sathining keskin ko‘tarilishi oqibatida yuzaga kelib, yer yuzasining katta maydonlarini vaqtincha suv bosishidir.

Toshqinlar ko‘p holatlarda kuchli jala, harorat ko‘tarilishi bilan qor va muzliklarning keskin erishi natijasida havzalardagi suv miqdorining ko‘payishidan paydo bo‘ladi. Bundan tashqari suv havzalari atrofidagi yonbag‘irlarda ko‘chki sodir bo‘lishi qoyalardan tog‘ jinslari o‘pirilishi bilan havzadagi suv toshib chiqishi va tug‘onlarning behosdan buzilib ketishi oqibatida ham sodir bo‘lishi mumkin. Odatda bunday toshqinlar juda havfli bo‘ladi.

Toshqinlarning yana bir turi shamolning katta tezligi bilan bog‘liq bo‘lib, dengiz suvini qirg‘oqlarga ma’lum balandlikda bostirib kelishidan paydo bo‘ladi. Lekin, toshqinning bu turi mamlakatimiz hududlarida uchramaydi.

Vatanimizning tabiiy tuzilishi, gidrometeorologik sharoiti, muxandis-gidrogeologik inshootlari boshqa tabiiy ofatlar kabi toshqin bo‘lib turishi va uning havfi yuqoriligidan dalolat beradi. Ayniqsa bu hodisa suv tarmoqlari atroflarida juda ko‘p tarqalgan.

Toshqinlarning hosil bo‘lishi, garchan bir hil sababdan bo‘lsada, ya’ni ob-havo sharoitining keskin o‘zgarishi natijasida me’yordan ko‘p yog‘ingarchilik bo‘lishi, aholi yashash joylari va hududlarga turli ta’sir ko‘rsatadi. Bular ichida eng kuchlisi halokatli toshqinlar hisoblanib, ular uzoq muddat yoqqan yomg‘ir natijasida yuzaga keladi. Bizning sharoitda toshqinlar bilan birga sellar doim kuzatiladi.

Aholi va hududlarni toshqin, sellardan muhofaza qilishning birinchi talabi daryo, soy o‘zanlari atrofini mustahkamlashdan iborat. Shunday tadbir Oqsuv va Shohimardon soy atroflarida olib borilib qirg‘oqlar qum-shag‘al, temir-beton mahsulotlari bilan mustahkamlanadi.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Toshqinning hosil bo‘lish hususiyatiga ko‘ra ba’zi ehtiyot choralarini amalga oshirish lozim. Ya’ni oziq-ovqat, ichimlik suvi, kiyim-kechak va boshqa maishiy-xo‘jalik zahiralariga ega bo‘lish, ularni suv bosmaydigan joylarda saqlash. Kerakli xo‘jjatlar, zarur mol-mulk bilan evakuatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish zarur.

Toshqin juda katta tezlik bilan avj olayotgan bo‘lsa, zudlik bilan yaqin atrofdagi tepalikka qarab yurish, bino sharoitida bo‘lsangiz yuqori qavatlarga ko‘tarilish, tomlarga chiqib olish tadbirdarini amalga oshirish lozim. Ammo, barcha ehtiyot choralariga qaramasdan mobodo, suv ichida qolsangiz, eng muhimi sarosima va vahimaga berilmasdan xotirjamlik bilan ustki va oyoq kiyimlarni yechish, suv oqimi bo‘ylab birorta balandroq yoki mustahkam asosga ega bo‘lgan predmetni tanlash, suv bilan birga harakat qilayotgan buyumlardan o‘zingizni ehtiyot qilish choralarini ko‘rishingiz lozim.

Zaruratga ko‘ra uylarni, xonalarni tark etayotganingizda suv, gaz, elektr tarmoqlarini havfsiz holatga keltirishni unutmaslik kerak. Yerto‘lalarda oziq-ovqat zahirasi mavjud bo‘lgan taqdirda ularni quruq bo‘lgan joylarga, suv bosib zarar yetkazmaydigan joylarga olib qo‘ygan ma’qul.

Avvalo, har qanday tabiiy ofat yuzaga kelgan maydon va hududda o‘ziga yarasha antisanitariya holati yuzaga keladi. Buning oqibatida odamlar o‘rtasida, tirik organizmlar o‘rtasida yuqumli zararlanish holati tarqaladi. Shu vaziyatdan chiqish uchun ma’lum muddatgacha faqat qaynatilgan suv iste’mol qilish va quruq oziq-ovqatlar bilan chegaralangan ma’qul. Zarurat tufayli uy-joylardan boshqa yerga o‘tilgandan so‘ng qaytib kelinganda uyning holatini, atrof yo‘laklarni sinchiklab ko‘zdan kechirish kerak. Hech vaqt uyga kirishga shoshilmang. Toshqin tufayli uylarning devorlari zah tortishi, namgarchilik me’yordan ortib ketishi oqibatida inshootlar bardoshligi zaif bo‘lib qoladi, natijada uncha katta bo‘limgan tashqi kuch ta’sirida binolar qulab ketishi mumkin. Suv to‘planib qolgan joylardan alohida yo‘laklar hosil qilib yurish joylarini tashkil etish kerak.

Xona ichida qolgan oziq-ovqatni iste’mol qilishdan o‘zingizni saqlang. Mavjud asbob-uskunalardan, ayniqsa elektr asboblaridan foydalanishda nihoyatda ehtiyot bo‘ling. Chunki to‘liq qurimagan asboblar boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishiga sababchi bo‘lib, qo‘sishmcha nohushliklarni olib keladi. Bundan tashqari har qanday tabiiy ofatni bartaraf qilishda ham o‘ziga yarasha talab va qoidalari mavjud. Hususan, toshqindan so‘ng uni bartaraf qilishda keng miqyosda aholi tomonidan qanday ishlar amalga oshirilishi lozim?

Avvalo, yuqorida ta’kidlanganidek atrof sinchiklab o‘rganilgandan so‘ng, suv bosgan joylar ortiqcha turli materiallardan xalos qilinib quritish ishlari amalga oshiriladi. Inshootlarda yarim o‘pirilgan, qayta tiklab bo‘lmaydigan joylar aniqlansa tezda bo‘zib tashlanishi va u joylar tozalanishi kerak.

Binolarning pastki, pastqam joylarida suv to‘planib qolgan bo‘lsa texnik asboblar yordamida suv chiqarib tashlanadi. Toshqin natijasida shikastlangan maishiy-energetika tarmoqlari, yillar, ko‘priklar va boshqa inshootlarni ta’mirlashga kirishiladi. Mazkur

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



tadbirlarni amalga oshirish aholidan uyushqoqlikni, jipslik va o‘zaro hurmatni talab etadi. Shundagina oldinda turgan har qanday talofat oqibatini tezda bartaraf qilish mumkin.

Yuqorida qayd qilinganidek, toshqin va sellarning paydo bo‘lishida respublikamiz hududlaridan tashqarida bo‘lgan tabiiy suv omborlar, gidrotexnik inshootlar ham o‘ziga yarasha havf tug‘diradi. Bizning nazarimizda bunday ob’ektlarning joylashgan o‘rnini, havflilik darajasi, ko‘lami to‘g‘risida batafsil ma’lumot berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aksariyat ko‘p hollarda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda aholi o‘rtasida ma’lumot yo‘qligidan sarosimaga tushish oqibatida talofat ikki-uch bar obar ko‘payib ketishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-soni qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455 -sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 754 -sonli qarori
4. <https://lex.uz/>

